ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2022

12-son

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

4. Чудинов А. П. Метафорическая мозаика в современной политической коммуника-ции. Екатеринбург, 2003. 248 с.

5. Michael Stubbs (1996). Text and Corpus Analysis: Computer-Assisted Studies of Language and Culture. Oxford: Blackwell

6. Cortazzi & Jin, 1999, p.154

7. Michael Hoey (2001). Textual interaction. London and New York

8. Safarov. Sh Paralingvistika, Toshkent: O'ZME. 2008, 210-b

9. Halliday M.A. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 p

10. Сафаров Ж.Ш. (2000). Структура дипломатическое дискурса и его лексико- фразеологическое состав (на материале английского языка)

11. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистические и когнитивные аспекты. –Тамбов:ТГТУ, 2008. – 288 с.

12. Л.Раупова. Диалогик дискурсдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи,-Филол.ф.д-ри дис-яси. –Т., 2012.

O'ZBEK SHE'RIYATIDA FARD SHE'RIY BIRLIGI XUSUSIDA

Jurayeva N.G. - Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute dotsenti,filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Bobur fard yaratish bobida mumtoz she'riyatimiz tarixida Alisher Navoiydan keyingi o'rinda turadi. U ham fardlarda ko'proq musarra' baytlarga murojaat qiladi. Boburning fard janri poetikasiga qo'shgan yangiliklaridan biri har qanday falsafiy umumlashmani, poetik xulosani lirik qahramon «men»ning shaxsiy kechinmalari va kuzatishlari bilan asoslangan holda berishga erishganligida ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: bayt, fard,vazn, bahr, ruboiy, g'azal, aforistik, didaktik, janr, lirik.

ОБ ИНДИВИДУАЛЬНОМ ПОЭТИЧЕСКОМ ЕДИНСТВЕ В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Жураева Н.Г. - кандидат филологических наук,доцент Национальный институт искусства и дизайна имени Камолиддина Бехзода

Аннотация. Захириддин Мухаммад Бабур являлся одной из выдающихся личности и занимает второе место после Алишера Навои в истории нашей классической поэзии по уровню создания лирических фардов. Он также ссылается на большее количество стихов мусарра в фардах. Одно из

новшеств Бабура в поэтике жанра фард можно увидеть в том, что ему удалось передать философские обобщения, поэтические выводы, основанные на личных переживаниях и наблюдениях лирического героя, через призму восприятия «Я».

Ключевые слова: байт, фард, размер, бахр, рубаи, газель, афористичность, дидактика, жанр, лирика.

INDIVIDUAL POETIC UNITY IN UZBEK POETRY

Juraeva N.G. - candidate of philological sciences, associate professor
National institute of Art and design named after Kamoliddin Behzod

Annotation. Zahiriddin Muhammad Babur ranks next to Alisher Navoi in the history of our classical poetry in terms of creating an individual. He also refers to more musarra' verses in fards. One of Babur's innovations in the poetics of the fard genre can be seen in the fact that he managed to give any philosophical generalization, poetic conclusion based on the personal experiences and observations of the lyrical hero.

Key words: verse (bayt), fard, wazn, bahr, rubai, ghazal, aphoristic, didactic, genre, lyric.

Fard o‘zining shakliy tuzilishi, hajmi bilan baytning aynan o‘zidan iborat. Fard misralarining o‘zaro qofiyalanishi o‘zbek she’riyatida qat’iy qonuniyatga aylangan. Ammo Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziy “Fard ikki misra’ bo‘lur. Avvalgi misrasida qofiya bo‘lmas” deb izohlaydi va Zohir Faryobiy, Kamol Isfahoniy, Kamol Xo‘jandiy, Salmon Sovajiy, Jalol Samarkandiy, Xoja Kirmoniy, Hofiz Sheroziy, Xisrav Dehlaviy, Nizomiy Iroqiy, Nosir Buxoriy, Imod Sheroziy, Sakkokiy Sayroniy, Lutfiyi Shoshiy, Xayoliylar ijodidan misollar keltiradi.

O‘zbek mumtoz shoirlari ijodini ko‘zdan kechirish Taroziyning bu fikrini quvvatlamaydi. Chunki aksariyat fardnavislarda bayt misralari o‘zaro qofiyalanganligini ko‘ramiz. Masalan, Alisher Navoiyning sakson oltita fardidan faqat to‘rttasida, Boburning oltmish beshta fardidan faqat ikkitasida misralar o‘zaro qofiyalanmagan. Bundan kelib chiqadiki, fardlarda misralarning qofiyalanishi ba’zan shart emas. Ammo o‘zbek shoirlari yagona baytdan iborat aforistik asardagi yuksak poetik fikrning jarangdor chiqishi, xotirada tez va mustahkam qolishini ta’minlash uchun fard misralarini qofiyalashga intilganlar. Fors-tojik she’riyatida ham fardlar musarra’ - a+a va oriy - a+b shaklida yozilishi mumkin.

Fardlarga xos janr xususiyatlarini ko‘rsatar ekan, tadqiqotchi M. Oymatova ushbu janrning bir baytdan iborat bo‘lishi, bayt tarkibidagi misralarning nisbiy

mustaqillikka ega bo‘lishlarini va ular o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lishlari, mazmunning aforistik va didaktik xarakterda bo‘lishi, vazn nuqtai nazaridan muayyan bahr yoki vazn bilan chegaralanmaganligini, mavzu doirasining kengligi kabilarni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi.

Navoiy fardlarining tadqiqotchisi L.Serikova fardlarning paydo bo‘lishi masalasida to‘xtalib, ayrim fardlar oldin yozilib, keyin boshqa janrlar tarkibiga kiritilganligi yoki ko‘p baytli asarlar tarkibidan mazmuni quyuq teran baytlarni alohida ajratib olish orqali ham yaratilishi mumkinligini aytadi.Biz uning birinchi fikriga, ya’ni avval alohida mazmundor baytning yaratilishi, keyin undagi poetik fikrni rivojlantirish uchun unga yangi baytlarni qo‘shish orqali yirikroq asarlar yaratilishi haqidagi fikrga qo‘shilamiz. Uning g‘azal, qasida, masnaviy, ruboiy kabi janrlar tarkibidan alohida baytni fard sifatida ajratib olinishi haqidagi fikriga qo‘shila olmaymiz. Bunga bizning asosimiz shuki, mumtoz shoirlar badiiy asar yaratishda har bir hayotiy faktga, ana shu fakt orqali ifodalangan g‘oyaga janr nigohi, janr imkoniyati nuqtai nazaridan yondoshganlar. Shunday ekan, ular imkon doirasida har bir fardni semantik-sintaktik jihatidan tugal yaratganlar. Ammo ba’zan ana shunday yagona bayt-fard qo‘shimcha izoh, talqin va kuchaytirish talab qilib qolishi tufayli o‘ziga qo‘shimcha baytlarni qo‘shib olishi mumkin. Oqibatda, fard boshqa baytlar ichida yo‘qolib, boshqa janrdagi asar vujudga keladi. Ammo ko‘p baytli asar tarkibidan mazmunan quyuk baytni ajratib olib, uni fardga aylantirish kishini ishontira olmaydi.L.Serikova fikrini isbotlash maqsadida Navoiy g‘azallaridan biridagi matla’ bilan uning fardlaridan birini muqoyasa qiladi. Mana o‘sha matla’:

Menki chekdim la’l shavqi birla jonondin ilik,
Go‘iyo hayvon suyi birla yudum jondin ilik.

Fard esa quyidagicha:

Menki chekdim yig‘lamoqlar birla jonondin ilik,
Ashk selobi bila oxir yudum jondin ilik.

Fardning g‘azal matla’si bilan o‘xshashligi birinchi qarash to‘g‘ri deyishga asos beradi. Dastlab fard yaratilgan va u qayta ishlanib, g‘azal matla’siga aylantirilgan. Agar lirik qahramon yig‘lash bilan jonondan umidini uzgan bo‘lsa, ko‘z yoshining seli bilan jonidan umidini uzgan bo‘lsa, u holda g‘azal yozishga hojat yo‘q. Chunki g‘azalda bu kayfiyat va ruhiy holatni bundan ortiqroq rivojlantirib bo‘lmaydi. Lirik qahramon eng oxirgi hukmni, eng so‘nggi xulosani faqat fard janri talablariga mos holda izhor qilgan. Janrga xos bu talabni nozik his qilgan shoir fardni o‘zgartirish orqali, uni g‘azal janri talabiga moslash orqali matla’ga aylantiradi. Darhaqiqat, lirik qahramon mahbubaning labi shavqida jonondan kechdi, go‘yoki abadiy tiriklik suvi bilan jonidan kechdi. Labi shavqidan umidi bor oshiqning jonondan kechishiga ishonib bo‘lmaganidek, tiriklik suviga ega bo‘lgan odam uchun

jondan kechishning dahshatli tomoni yo‘q.Farddan o‘zgartirilib olingan baytning matla’ sifatida qo‘llanilishi uning g‘azal janrida yanada rivojlantirishga asos bo‘ladigan poetik tezis shakliga keltirilishi bilan bog‘liqdir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki,har qanday fard ham o‘z xolicha boshqa janrga, ayniqsa g‘azalga olinavermaydi. Chunki fard boshqa janrga kiritilmoqchi bo‘lsa, undagi kategorial hukm rivojlantirishga muhtoj nisbiy fikrga aylantirilishi lozim. Masalaning bu jihatiga L.Serikova ham, uni quvvatlagan prof. R.Orzibekov ham ahamiyat bermaydilar.1 Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkin: janr va uning hajmi, shakliy mustaqilligi, ijodkor nuqtai nazari, asarning g‘oyaviy ifodasiga jiddiy e’tibor qaratgan mumtoz shoirlar hech qachon har qanday fardni o‘z holicha boshqa janr tarkibiga kiritmaganlar, qolaversa, har qanday mazmunan yuksak baytni hech qachon o‘z holicha fard janri namunasi sifatida boshqa janrdagi asar tarkibidan ajratib olavermaganlar.Masalani bu xilda sodda hal qilish bayt poetikasini chuqur tushunmaslik oqibatidir. Chunki shoir fard shaklida baytga o‘ziga xos poetik ishlov beradi, ularni janr poetikasiga mos holda yaratadi. O‘zbek mumtoz she’riyatida xam fard dastlab oriy baytlar shaklida yaratilgan. Masalan, Lutfiyning o‘ttiz ikkita fardidan faqat bittasida musarra’ bayt shakli qo‘llanilgan. Demak, fardlarning janr xususiyatlari belgilanganda bayt misralarining qofiyalanishi muhim ahamiyatga ega emas. Fardning yetakchi janr xususiyati baytning hukm sifatida fikr ifodalashidir. Chunki har bir bayt aniq, lo‘nda fikrni hukm, xulosa sifatida ifodalamas ekan, undagi hikmatlilik, didaktika bo‘rtib ifodalanmaydi. Masalan, Lutfiyning quyidagi fardida hikmatomo‘zlik hukm tarzida ifodalangan:

Sarnavishtim ul qaro qoshdin balodur, netayin,
Ollinda yozganni ko‘rmakdin kishiga chora yo‘q.

Birgina baytdan iborat asarda poetik xulosa qat’iy hukm sifatida aytilgai. Uni rivojlantirish, davom ettirishga hojat yo‘q. Chunki lirik qahramon peshonasiga qora qosh balosi yozilgan bo‘lsa, u nima qilsin, qismatiga yozilganini ko‘rmasdan unga boshqa chora yo‘q. Chunki lirik qahramon peshonasiga qora qosh balosi yozilgan bo‘lsa, u nima qilsin, qismatiga yozilganini ko‘rmasdan unga boshqa chora yo‘q.

O‘zbek adabiyotida fard janri taraqqiyotiga Alisher Navoiy katta hissa qo‘shdi. Uning xizmatlari, birinchidan, u farddagi aforistik xususiyatni kuchaytirdi va asardagi pand-nasihat darajasini oshirdi. Ikkinchidan, Navoiy fard misralaridagi fikriy mustaqillikni kuchaytirish uchun ularni o‘zaro qofiyalashga, shu orqali tanho baytning ohangdorligini orttirishga erishdi. Uchinchidan, dono fikrning ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida uning hukm ifodalash xususiyatini kuchaytirdi:

Agarchi ishq dardidin manga yuz ming uqubatdur,
Vale hamdardsizlig‘ andin ortug‘roq suubatdur.

Haqiqatan, oshiq uchun ishq dardidan yuz ming uqubat kelsa xam, lekin haqiqiy inson uchun ishqsizlikdan ortiq azob-uqubat bo‘lmaydi. Bunday falsafiy xulosani, hukmni bir bayt doirasida ayta olish faqat fard janri uchun xosdir. Undagi dono fikrni ortiqcha izohlash, davom ettirish mumkin emas. Mana shu xususiyati bilan fard oddiy baytlardan farqlanadi va mustaqil janrlik da’vo qiladi.

Fard janriga xos xususiyatlardan yana biri shuki, fard baytlari istalgan vaznda yozilishi mumkin, ya’ni ular ruboiy yoki tuyuqdagiday belgilangan vaznda yozilmaydi. Masalan:

Ulki hak bo / rinda maqsud / istagay har / zotdin
foilotun foilotun foilotun foilun
- V - - - V - - - V - - - V -
Mehr borin / da yorug‘lug‘ / ko‘z tutar zar/ rotdin.
Foilotun foilotun foilotun foilun
- V - - - V - - - V - - - V -

Ushbu bayt musarra’ bayt orqali ramali musammani maqsur vaznda, ya’ni sadr, hashv, hashv, aruz // ibtido, hashv, hashv, ajuz tuzilishda yozilgan bo‘lsa, quyidagi fard ramali musaddasi mahzuf vaznida, ya’ni sadr, hashv, aruz // ibtido, hashv, ajuz tuzilishida yozilgan:

Forig‘ eldur / anda bori / qondadur
Foilotun foilotun foilun
- V - - - V - - - V -
Kim, bu davron / dadurur, dar / mondadur
Foilotun foilotun foilun
- V - - - V - - - V -

Navoiy fardlariga xos xususiyat shundaki, u baytning aforistik xususiyatini kuchaytirish uning ohangdorligini, ta’sirchanligini orttirish maqsadida asosan musarra’ baytga murojaat qilgan.O‘zbek fardnavisligida Navoiy an’analarini Bobur izchil davom ettirdi. U fardning aforistik xususiyatini saqlagan holda uning izchil hukm ifodalash jihatiga e’tibor kuchaytiradi va musarra’ baytlar asosida yaratishga intiladi. Muhimi shundaki, Bobur fardlarni shaklan Navoiy baytlariga o‘xshash yaratsa-da, biroq har bir asarida o‘ziga xos individuallikni ta’minlashga ham erishdi. Bu individuallik esa farddagi dono fikrni lirik «men»ning hissiy kechinmalari bilan omuxta ifodalay olishida ko‘zga tashlanadi. Shu bois Bobur fardlarida dono fikr, falsafiy umumlashma shaxsga daxlsiz holda emas, balki shaxsning tuyg‘ulariga qorishiq ifodalanganligini ko‘ramiz. Uning quyidagi fardida lirik qahramon mahbuba firoqida may ichgisi, yig‘lagisi keladi. Shuning uchun u hadeb menga chog‘ir

keltiravermang, achchig‘im keladi, deb aytadi. Aniqrog‘i, yor firoqida hadeb yig‘lash uning joniga tegadi. U may ichib yig‘lashdan zada bo‘lgan:

Base, firoqida ichsam chog‘ir yig‘im keladur,
Manga chog‘irni keturmangki, achchig‘im keladur.

Ko‘rinib turibdiki, «men» dardi va kayfiyati orqali hijron azobida qiynalib, alamini maydan olib, yig‘lash kabi ishq ahliga xos holat va kayfiyat, undan saqlanish zarurligi kabi didaktika esa musarra’ baytni fard darajasiga ko‘targan.

Bobur shoh va shoir sifatida bir inson hayotda ko‘rishi mumkin bo‘lgan barcha shodligu g‘amni ko‘rib, totib yashadi. Ammo u hamma vaqt iymoni baquvvat inson sifatida barchasiga sabr-bardosh berdi, shukr qilib yashadi. Haqiqiy insonga xos mana shu xislat uning fardlarnda ulug‘vor falsafiy xulosa sifatida o‘z ifodasini topgan:

Ko‘pu ozga tengridur berguchi
Bu dargohda yo‘qtur kishining kuchi.

Xullas, Bobur fard yaratish bobida mumtoz she’riyatimiz tarixida Alisher Navoiydan keyingi o‘rinda turadi. U ham fardlarda ko‘proq musarra’ baytlarga murojaat qiladi. Boburning fard janri poetikasiga qo‘shgan yangiliklaridan biri har qanday falsafiy umumlashmani, poetik xulosani lirik qahramon «men»ning shaxsiy kechinmalari va kuzatishlari bilan asoslangan holda berishga erishganligida ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar

1. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970. - 213 b.

2. Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. // O‘zbek tili va adabiyoti. - 2002. - № 2 - B.77-90.

3. Shayxzoda M. G‘azal mulkining sultoni. // M.Shayxzoda. Asarlar. 4-

4. Furqat Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik.1-jild. - T., 1991. - 392 b.

5. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. - M.: Nauka, 1982. -327 s.

6. Nazokat Jurayeva .-Mumtoz she’riyatda bayt poetikasi.Monografiya-T.: TDSHU bosmaxonasi,2020.-134 b.